

PLITONIT

PROFESSIONAL BO'LISH OSON



**PLITONIT WaterProof Standard – ichki ishlar uchun bazaviy darajadagi elastik
gidroizolyatsion mastika**



Keyinchalik pardozlash ishlarini amalga oshirishdan oldin qurilish konstruksiyalari va inshootlarining bino ichidagi va tashqarisidagi (dushxona, shu jumladan tagliksiz, vannaxonalar, hojatxonalar, kirkxonalar va boshqa nam xonalar) yaxlit choksiz gidroizolyatsiyasini o'rnatish uchun mo'ljallangan. Beton, suvoq, g'isht terish ishlarida ham, nam xonalarda gipsokarton va gipsli suvoq kabi namlikka chidamsiz qoplamlarni himoyalashda ham ishlataladi. Isitiladigan pollar tizimida foydalanish mumkin. Sezilarli dinamik yuklanishlarga uchramaydigan choc oraliqlarini (plastik va metall suv quvurlarining chiqish joylari, qurilish konstruksiyalarining burchakli birikmalari va boshqalar) to'ldirish uchun tavsiya etiladi.

Qadoqlash - 4,5 kg, 8 kg, 14 kg plastik chelak.

- Kuchaytirilgan adgeziya 1,5 MPa
- "Issiq pol" tizimlari uchun tavsiya etiladi
- Suv o'tkazmaslik bo'yicha marka W3
- Qurishni vizual nazorat qilish
- Surtilgandan keyin 6 soatdan keyin piyoda yurish

Material sarfi

Qatlam qalinligi 1 mm bo'lganda 1,2 kg/m².

Ish olib borish sharoitlari

Beton asosining nisbiy namligi 90% dan oshmaydi. Havo va asosning harorati ishni amalga oshirish vaqtida va keyingi 2 sutka davomida +10 °C dan kam bo'imasligi va +30 °C dan oshmasligi kerak. Mastikaning harorati esa +10°C dan past bo'imasligi kerak.

Asosni tayyorlash

Yuza chang, kir, moy, yog', sement kukuni va materialning asosga yopishishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa zarrachalardan tozalangan bo'lishi kerak. Yoriqlar, o'yilalar, kavernalar va boshqa o'tkir uchli notekisliklar polimer gidroizolyatsiyalashdan oldin shapklyovka, suvoq yoki sement asosidagi ta'mirlash tarkibi bilan qoplanishi kerak, masalan, PLITONIT K/PLITONIT T1+/PLITONIT RemSostav.

Ishlash tartibi

Agar mahsulot muzlatilgan bo'lsa, undan xona haroratida +10 °C dan +25 °C gacha 24 soat davomida ushlab turilgandan keyin foydalanishga ruxsat etiladi. Erta erish maqsadida qizdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ishlatishdan oldin mastikani aralashtiring. Tayyorlangan asosga material shpatel, valik yoki cho'tka yordamida surkaladi. Surtish qatlamlari soni - kamida ikkita, har bir keyingi qatlam oldindi qatlam qurigandan keyin surtilishi kerak. 1-qatlamning qurish vaqtiga – 1 soat, keyingilarining qurish vaqtiga 2 soat. Surtilgan mastikaning quritish tezligini dastlabki ko'k-yashil rangdan zumrad-yashil rangga o'zgartirish orqali nazorat qilish mumkin. Tayyor mastika rangining partiyadan partiyaga o'zgarishi tayyor qoplamaning ekspluatatsion xususiyatlariga ta'sir qilmaydi. Gidroizolyatsiya qatlami bo'ylab piyoda yurishga uni o'rnatgandan keyin 6 soat o'tgach, keyingi pardozlash ishlariga oxirgi qatlam yotqizilgandan keyin kamida 12 soat o'tgach ruxsat beriladi. "Pol-devor" tutashgan joylarda, shuningdek quvurlar va to'kish teshiklari bilan kontakt zonasida, masalan, dush, vanna xonasini gidroizolyatsiya qilishda elastik gidroizolyatsion lentalardan, masalan, PLITONIT GidroLentadan foydalanish tavsiya etiladi. GidroLenta asosga surkalgan mastikaga silliq shpatel yoki valik bilan botiriladi. Keyingi WaterProof Standard qatlami lentaning perforatsiyalangan chetki qismi ustidan elastomerga uning o'rta qismi qoplanmagan holda kichik ustma-ust tushiriladi, bunda oldindi gidroizolyatsion qatlam qotib qolgan, lekin hali nam bo'lishi kerak.

Diqqat

Surtilgan gidroizolyatsiya qatlamiga zarar yetkazmang. Mastika mexanik shikastlanish xavfi bo'lganda ochiq ishchi yuza sifatida qo'llanilmaydi. Keyinchalik yuzalarni qoplash uchun PLITONIT plitkalari uchun yelimlardan foydalanish tavsiya etiladi: B; B+; B ekspress; C; C marmar, Mosaic White. Mastika sport basseynlari, quduqlarni, yerto'lalarni, suvning yuqori bosimi ta'siriga uchraydigan boshqa obyektlarni gidroizolyatsiya qilish uchun mo'ljallanmagan. Ushbu maqsadlar uchun ikki komponentli PLITONIT GidroElast 2K gidroizolyatsiyasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Ehtiyyot choraları

Mastika GOST 12.1.007 ga muvofiq 4 xavflilik sinfiga (past xavfli moddalar) kiradi. Ishni bajarayotganda qo'lqop, himoya ko'zoynagi va respirator himoya vositalaridan foydalaning. Aralashmaning terining ochiq joylariga tushishining oldini oling. Ko'z bilan aloqa qilganda, darhol ko'p miqdorda suv bilan yuvib tashlang. BOLALARDAN UZOQ SAQLANG!

Tashish va saqlash shartlari

Mastikani yuklarni tashish qoidalari muvofiq yopiq transport vositalarida tashish kerak. Qadoqning saqlanishini ta'minlaydigan sharoitda +5 °C dan +30 °C gacha haroratda yopiq quruq xonalarda saqlanadi. Ishlab chiqaruvchining tarasida saqlash muddati – ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oy.

Tarkibi

Akril dispersli suvli emulsiya, mineral to'ldiruvchilar va funksional qo'shimchalar asosidagi kompozitsiya.

Ishlab chiqaruvchi kafolati

Ishlab chiqaruvchi iste'molchi tomonidan tashish, saqlash shartlariga va ushbu yo'riqnomaning ko'rsatmalariga rioya qilinganda mastikaning TU 23.99.12-171-51552155-2022 talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. Ishlab chiqaruvchi material bilan ishslash texnologiyasiga rioya qilmagan taqdirda, shuningdek uni mazkur yo'riqnomada nazarda tutilmagan maqsadlarda va shartlarda qo'llaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

GOST R 8.579-2001 ga muvofiq netto massasidan og'ish. Mahsulotdan fuqarolik qurilishining barcha turlarida foydalanishga ruxsat etilgan ($A_{eff} < 370 \text{ Bk/kg}$, Sanitariya qoidalari va normalari 2.6.1.2523–09 bo'yicha I sinf) (NRB-99/2009).

Texnik xarakteristikalar

Bir qatlamning tavsiya etilgan qalinligi	0,5-1,0 mm
Qatlam qalinligi 1 mm bo'lganda mastika sarfi	1,2 kg/m ²
Asos bilan birikish mustahkamligi 28 sutkadan keyin	1,5 MPa dan kam bo'Imagan
28 sutka davomida issiq saqlashdan so'ng asos bilan birikish mustahkamligi	1,5 MPa dan kam bo'Imagan
Mastikaning issiqlikka chidamliligi	+70°C gacha
Suv o'tkazmaslik bo'yicha marka	W3

4,5 kg chelak uchun logistik ma'lumotlari

Individual shtrix-kod 4607013047037

Palletdagi chelaklar soni – 96 dona

8 kg chelak uchun logistik ma'lumotlari

Individual shtrix-kod 4607013047075

Palletdagi chelaklar soni – 60 dona

14 kg chelak uchun logistik ma'lumotlari

Individual shtrix-kod 4607013047099

Palletdagi chelaklar soni – 44 dona